Abstract. This article analyzes the key factors influencing the economic growth of Surkhandarya region over the period 2010–2024 using econometric methods. In particular, the study examines in detail the impact of investments, industrial production, development of the services sector, export volume, employment rate, and population size on the formation of gross regional product. The main objective of the research is to identify the macroeconomic determinants of regional economic growth and to assess the magnitude of their effects. To achieve this objective, a multiple regression model was developed based on time series data for 2010–2024, and an empirical evaluation was conducted. Based on the obtained results, scientifically grounded proposals and recommendations aimed at improving the efficient utilization of the economic potential of the Surkhandarya region were formulated.

Key words: regional economic growth, econometric analysis, investment, industrial output, services sector, export, employment, population size, gross regional product, macroeconomic determinants.

Аннотация. В статье с использованием эконометрических методов проанализированы основные факторы, влияющие на экономический рост Сурхандарьинской области в период 2010–2024 годов. В частности, в исследовании подробно рассмотрено влияние инвестиций, промышленного производства, развития сектора услуг, объёма экспорта, уровня занятости и численности населения на формирование валового регионального продукта. Основной целью исследования является выявление макроэкономических детерминант регионального экономического роста и оценка силы их воздействия. Для достижения данной цели на основе временных рядов за 2010–2024 годы была построена многофакторная регрессионная модель и проведена эмпирическая оценка. По результатам исследования сформулированы научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности использования экономического потенциала Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: региональный экономический рост, эконометрический анализ, инвестиции, промышленное производство, сектор услуг, экспорт, занятость, численность населения, валовой региональный продукт, макроэкономические детерминанты.

## KIRISH

Hududiy iqtisodiy oʻsish bugungi kunda ham milliy iqtisodiyot barqarorligini va ijtimoiy farovonlikni taʼminlashdagi muhim omil boʻlib qolmoqda. Global miqyosda jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) oʻsishi 2024-yilda taxminan 2,9 % ni tashkil etdi [1]. Hududiy darajada iqtisodiy oʻsishni taʼminlovchi omillar, jumladan investitsiyalar, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sektori rivoji, eksport faoliyati, bandlik darajasi, aholi soni va boshqa makroiqtisodiy koʻrsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ilmiy tadqiqotlarda sanoat tuzilmasi, mehnat resurslari hajmi hamda innovatsion salohiyat kabi omillar hududiy iqtisodiy barqarorlikka sezilarli taʼsir koʻrsatishi aniqlangan [2]. Shu munosabat bilan hududlarning iqtisodiy salohiyatini aniqlash hamda undan samarali foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy asos boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, mamlakatimizda, jumladan Surxondaryo viloyatida 2010–2024-yillar mobaynida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish koʻlamining sezilarli darajada kengaygani kuzatilgan. Statistik maʼlumotlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, viloyat yalpi hududiy mahsuloti 2010-yilda 3 802,2 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib 54 354,1 mlrd soʻmga yetgan. Bu holat mazkur davrda iqtisodiy faoliyat hajmining barqaror va jadal oʻsib borganidan dalolat beradi. Investitsiya qoʻyilmalari hajmining 655,3 mlrd soʻmdan 16 593,1 mlrd soʻmga yetgani hududda kapital shakllanishi faollashganini hamda asosiy tarmoqlarning modernizatsiyasi jadallashganini koʻrsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishining 2010–2024-yillar davomida 756,4 mlrd soʻmdan 13 819,8 mlrd soʻmga oshgani, xizmatlar hajmining esa 796,3 mlrd soʻmdan 28 381,8 mlrd soʻmga yetgani iqtisodiyotning tarmoqlar boʻyicha diversifikatsiyalanganini va xizmatlar sektorining ustuvorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Eksport hajmining mazkur davrda 278,8 mln AQSh dollaridan 269,5 mln AQSh dollarigacha boʻlgan tebranishi tashqi iqtisodiy muhitning oʻzgaruvchanligini aks ettiradi.

Aholi sonining 2010-yilda 2 075 ming kishidan 2024-yilda 2 877,1 ming kishiga yetishi hududning demografik salohiyati ortganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bandlik darajasining 62–64 % diapazonida saqlanib qolishi hududda iqtisodiy faollik va mehnat bozori oʻrtasidagi nisbat nisbatan barqaror ekanini, biroq uning oʻzgarishlari cheklanganligini anglatadi. Ushbu koʻrsatkichlar majmuasi hududiy iqtisodiy oʻsishning asosiy omillarini aniqlash va ularning oʻzaro taʼsirini ilmiy jihatdan baholash zarurligini asoslaydi [3].

Mazkur holatlar va statistik natijalar Surxondaryo viloyati misolida hududiy iqtisodiy oʻsishning asosiy makroiqtisodiy determinantlarini aniqlash, ularning taʼsir kuchini baholash hamda tarmoqlar kesimida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasini chuqur oʻrganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu asosda ushbu tadqiqot 2010–2024-yillarga oid vaqt qatori maʼlumotlari asosida koʻp omilli regressiya modeli yordamida iqtisodiy oʻsishga taʼsir koʻrsatuvchi omillarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Olingan empirik natijalar viloyat iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni taʼminlash, tarmoqlar oʻrtasidagi proporsiyalarni takomillashtirish va hududiy rivojlanishning strategik yoʻnalishlarini shakllantirishda ilmiy-amaliy asos boʻlib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy oʻsish va uning determinantlari masalasi boʻyicha dunyo miqyosida koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, ushbu yoʻnalish iqtisodiy geografiya, mintaqaviy rivojlanish, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy siyosatning eng muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, soʻnggi yillarda xorijiy adabiyotlarda hududiy oʻsishni belgilovchi omillar sifatida innovatsion infratuzilma, investitsiya oqimlari, mehnat resurslarining sifati, tarmoqlarni diversifikatsiya qilish darajasi va xizmatlar sektorining kengayishi alohida taʼkidlanadi. R. Crescenzi va S. Iammarino 2017-yilda, R. Boschma 2015-yilda, R. Martin va P. Sunley 2015-yilda olib borgan

tadqiqotlarda hududiy innovatsion salohiyat, iqtisodiy barqarorlik, aglomeratsiya afzalliklari va tarmoqlararo sinergiya iqtisodiy oʻsishning asosiy determinantlari sifatida qayd etilgan [4–6].

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — Jahon banki (World Bank, 2014–2023-yillar), Osiyo taraqqiyot banki (ADB, 2020–2023-yillar), OECD (2021–2022-yillar) tomonidan tayyorlangan hisobotlarda mintaqaviy oʻsishning asosiy omillari sifatida investitsiya faolligi, iqtisodiy islohotlar samaradorligi, eksport salohiyati, ishlab chiqarish klasterlari va mehnat bozori strukturasidagi oʻzgarishlar qayd etiladi [7–9]. Tadqiqotlarning aksariyatida hududiy oʻsishning miqdoriy baholanishi regressiya modellar, panel maʼlumotlar modeli va vaqt qatorlari asosida amalga oshirilgan.

MDHga aʼzo davlatlar olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hududiy iqtisodiy oʻsishga sanoatni modernizatsiya qilish, aholi sonining oʻsish surʼati, mobil bandlik, tashqi savdo hajmi va infratuzilmaning rivojlanish darajasi sezilarli taʼsir koʻrsatishi aniqlangan. Jumladan, A. Kerimova tomonidan 2021-yilda oʻtkazilgan tadqiqot hududiy YaHM daromadlari bilan investitsiya oqimlari oʻrtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligini, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy oʻsish mehnat resurslari sifatiga bevosita bogʻliqligini koʻrsatadi [10]. MDH adabiyotlarida qisqa muddatli tebranishlar, resurslarga bogʻliqlik va eksport yoʻnalishlarining notekisligi asosiy omillar sifatida yoritilgan.

Mazkur soha doirasida mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, asosiy eʼtibor iqtisodiy islohotlar, hududiy rivojlanish siyosati, investitsiyalar oqimi, sanoat klasterlari va xizmatlar sektorining kengayishiga qaratilgan. Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda, jumladan A. Umarov 2019-yilda hamda M. Rasulov 2021-yilda olib borgan ishlarida viloyatlar kesimida YaHM oʻsish omillari oʻrganilgan boʻlsa-da, koʻp hollarda maʼlumotlar qisqa davrni qamrab olgan yoki alohida tarmoqlar kesimida cheklangan tahlillar bilan chegaralangan [11,12].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, Surxondaryo viloyati boʻyicha 2010–2024-yillarni qamrab olgan kompleks, koʻp omilli ekonometrik tahlil hozirgacha yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, Surxondaryo viloyati YaHMning shakllanishiga investitsiyalar, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sektori, eksport hajmi, bandlik darajasi va demografik omillarning birgalikdagi taʼsirini baholovchi empirik tadqiqotlar mavjud emas. Shu jihatdan mazkur tadqiqot hududiy iqtisodiy oʻsish determinantlarini toʻliq qamrab olishi, uzoq muddatli vaqt qatorlari asosida olib borilishi va omillar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni ekonometrik modellashtirish orqali tahlil qilishi bilan ajralib turadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Surxondaryo viloyatida 2010–2024-yillarda kuzatilgan iqtisodiy oʻsish jarayoniga taʼsir koʻrsatuvchi asosiy makroiqtisodiy omillarni aniqlash va ularning iqtisodiy oʻsish bilan oʻzaro bogʻliqligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda birlamchi va ikkilamchi maʼlumotlar majmuasidan foydalanildi. Birlamchi maʼlumotlar muallif tomonidan 2010–2024-yillarga oid yillik vaqt qatorlari asosida shakllantirilgan hududiy koʻrsatkichlardan iborat boʻlib, ular yalpi hududiy mahsulot (YaHM), asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan investitsiyalar, sanoat mahsulotlari hajmi, xizmatlar sektori hajmi, eksport hajmi, bandlik darajasi va aholi soni kabi iqtisodiy indikatorlarni qamrab oladi. Ikkilamchi maʼlumotlar Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi, xalqaro moliyaviy institutlar hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar bazasidan olindi.

Tahlil jarayonida iqtisodiy oʻzgarishlarning asosiy tendensiyalarini aniqlash maqsadida deskriptiv statistika, korrelyatsion tahlil, trend tahlili hamda koʻp omilli regressiya modeli asosidagi ekonometrik yondashuvlardan foydalanildi. Dastlab YaHM va boshqa asosiy koʻrsatkichlarning 2010–2024-yillardagi dinamikasi oʻrganilib, ularning oʻsish surʼatlari va yillik mutlaq oʻzgarishlari hisoblab chiqildi. Keyingi bosqichda koʻrsatkichlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik darajasi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari yordamida baholandi.

Hududiy iqtisodiy oʻsish determinantlarining miqdoriy bahosini aniqlash maqsadida koʻp omilli regressiya modeli qurildi. Mazkur model YaHM oʻzgarishini investitsiya hajmi, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sektori hajmi, eksport koʻrsatkichlari, bandlik darajasi va aholi soni orqali tushuntirishni nazarda tutadi. Regressiya modeli nazariy jihatdan funksional koʻrinishda shakllantirildi va uning parametrlarini baholashda Eng kichik kvadratlar (OLS) usulidan foydalanildi. Ushbu usul qoldiq hadlar kvadratlari yigʻindisini minimallashtirish orqali modelning eng maqbul chiziqli baholashlarini aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar iqtisodiy mazmun nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Shu bilan birga, tuzilgan regressiya modelining statistik jihatdan ishonchliligini baholash maqsadida bir qator diagnostik testlar qoʻllanildi. Xususan, omillar oʻrtasida kuchli chiziqli bogʻliqlik mavjudligini aniqlash uchun Variance Inflation Factor (VIF) orqali multikollinearlik tekshirildi, Durbin–Watson statistikasi yordamida qoldiq hadlardagi avtokorrelyatsiya baholandi, Breusch–Pagan testi asosida heteroskedastiklik mavjudligi aniqlandi hamda Jarque–Bera testi yordamida model qoldiqlarining normal taqsimlanganligi tekshirildi. Ushbu testlar asosida modelning umumiy sifat koʻrsatkichlari baholandi.

Tadqiqot natijasida taʼsir kuchi yuqori boʻlgan determinantlar aniqlanib, hudud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni taʼminlovchi asosiy omillar statistik va ekonometrik jihatdan asoslab berildi. Mazkur

metodologik yondashuv hududning iqtisodiy rivojlanish dinamikasini chuqur baholash, strategik qarorlar qabul qilish va iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda 2010–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatining asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari dinamikasi, ularning oʻzgarish tendensiyalari hamda YaHM oʻsishiga taʼsiri batafsil oʻrganildi. Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi: (1) deskriptiv statistika va trend tahlili, (2) korrelyatsion tahlil, (3) koʻp omilli regressiya modeli asosidagi ekonometrik baholash.

Dastlabki bosqichda 2010–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatining asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari dinamikasi deskriptiv statistika usullari yordamida tahlil qilindi. Mazkur tahlil iqtisodiy jarayonlarning umumiy yoʻnalishini aniqlash, oʻzgarishlarning strukturasini ochib berish hamda regressiya modeliga kiritiladigan oʻzgaruvchilarning vaqt boʻyicha xatti-harakatini izohlashga xizmat qiladi.

2010–2024-yillar mobaynida Surxondaryo viloyati YaHM izchil oʻsish tendensiyasini namoyon etdi. 2010-yilda 3 394,7 mlrd soʻmni tashkil etgan koʻrsatkich 2024-yilga kelib 54 354,1 mlrd soʻmga yetib, qariyb 16 baravarga oshdi. Ushbu davrda YaHMning oʻrtacha yillik oʻsish surʼati 14–16 % diapazonida shakllandi. Bu esa, oʻz navbatida, iqtisodiy faollikning sezilarli darajada kuchayganini koʻrsatadi. Oʻsish surʼatlarining izchilligi hududda ishlab chiqarish quvvatlari, xizmatlar bozori va investitsiya faoliyatining bosqichma-bosqich kengayganidan dalolat beradi.

Investitsiyalar hajmi 2010-yildagi 655,3 mlrd soʻmdan 2024-yilda 16 593,1 mlrd soʻmga yetdi. Mazkur davr investitsiya oqimlarining jadal surʼatlarda oʻsib borganini koʻrsatadi. Ayrim yillarda maʼlum tebranishlar kuzatilgan boʻlsa-da, umumiy oʻsish tendensiyasi barqarorligicha qoldi. Investitsiya hajmining bunday oshishi infratuzilma loyihalari, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish hamda xizmatlar sektorida yangi loyihalarning ishga tushirilishi bilan bogʻliq.

Sanoat ishlab chiqarish hajmi 2010-yildagi 756,4 mlrd soʻmdan 2024-yilda 13 819,8 mlrd soʻmga oshdi. Oʻsish surʼatlari yillar booverichа bir xil boʻlmagan boʻlsa-da, umumiy tendensiya ijobiy boʻlib, sanoat sektori hudud iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolmoqda. Ayrim yillarda kuzatilgan tebranishlar ichki talab, xomashyo bozori va ishlab chiqarish quvvatlaridagi oʻzgarishlar bilan izohlanadi.

Xizmatlar sektorining rivojlanishi Surxondaryo viloyati iqtisodiy oʻsishining yetakchi omillaridan biri sifatida namoyon boʻldi. 2010-yilda 796,3 mlrd soʻmni tashkil etgan xizmatlar hajmi 2024-yilda 28 381,8 mlrd soʻmga yetib, oʻsish surʼatlari sanoat sektori koʻrsatkichlaridan ancha yuqori boʻldi (1-rasm). Xizmatlar sohasidagi bunday sezilarli oʻsish hududda kichik biznesning kengayishi, savdo va xizmat koʻrsatish tarmoqlarining rivojlanishi hamda ichki isteʼmol bozorining faollashuvi bilan izohlanadi.

Eksport hajmi 2010–2024-yillar oraligʻida nisbatan tebranuvchan xarakterga ega boʻldi. 2010-yildagi 278,8 mln AQSh dollari koʻrsatkichiga nisbatan 2024-yilda eksport hajmi 269,5 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Umumiy davr davomida eksportda sezilarli oʻsish qayd etilmadi, ayrim yillarda esa qisqa muddatli pasayishlar kuzatildi. Bu holat tashqi talabning oʻzgaruvchanligi, eksport tarkibining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi hamda logistika va transport infratuzilmasidagi cheklovlar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.




1-rasm. Sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlar sektori dinamikasi (2010–2024)[1]

1 Statistik maʼlumotlarga asoslangan muallif ishlanmasi

2010–2024-yillar davomida bandlik darajasi 62–64 % oralig‘ida saqlanib kelgan. Ko‘rsatkichning deyarli o‘zgarmaganligi hudud mehnat bozorida muayyan barqarorlik mavjudligini anglatadi. Aholi soni 2010-yilda 2075 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 2877,1 ming kishiga yetgan. Aholi sonining o‘sishi barqaror va izchil tusga ega bo‘lib, hududda mehnat resurslari salohiyatining kengayganini, ichki iste’mol bozorining kattalashganini hamda iqtisodiy faollikning ortishini ta’minlagan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

Umuman olganda, 2010–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar hajmi, xizmatlar sektori va sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi izchil kechgan. Eksport hajmi nisbatan beqaror bo‘lgan, bandlik darajasi deyarli o‘zgarmagan, aholi soni esa barqaror sur’atlarda o‘sib borgan. Ushbu deskriptiv natijalar hudud iqtisodiy o‘sishining strukturaviy xususiyatlarini ochib beradi hamda keyingi ekonometrik tahlillar uchun konseptual asos yaratadi.

Mazkur jarayonlarni miqdoriy jihatdan baholash maqsadida har bir asosiy iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati (CAGR), mutlaq o‘zgarish, nisbiy o‘sish, o‘rtacha qiymat va dispersiya ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Quyida keltirilgan formulalar yordamida Surxondaryo viloyatining 2010–2024-yillardagi makroiqtisodiy dinamikasi matematik jihatdan baholanib, ko‘rsatkichlarning uzoq muddatli o‘sish tendensiyalari, o‘zgaruvchanlik darajasi hamda barqarorligi aniqlab olindi (1-jadval).

1-jadval. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning matematik jihatdan baholash formulalari [2]

| № | Ko‘rsatkich | Hisoblash formulalari |
|---|---|---|
| 1 | Mutlaq o‘sish (Δ): | $\Delta = Y_{2024} - Y_{2010}$ |
| 2 | Nisbiy o‘sish (%): | $\% = \frac{Y_{2024} - Y_{2010}}{Y_{2010}} \cdot 100$ |
| 3 | O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati (CAGR): | $CARG = (\frac{Y_{2024}}{Y_{2010}})^{\frac{1}{14}} - 1$ |
| 4 | O‘rtacha qiymat: | $\overline{Y} = \frac{\sum_{t=2010}^{2024} Y_t}{15}$ |
| 5 | Dispersiya: | $D = \frac{\sum (Y_t - \overline{Y})^2}{n-1}$ |

Ushbu hisob-kitoblar asosida hudud iqtisodiyoti tarkibiy elementlarining o‘zaro farqlanishi hamda rivojlanish intensivligini aks ettiruvchi umumlashtirilgan statistik jadval shakllantirildi (2-jadval).

2-jadval. Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning deskriptiv statistik jadvali (2010–2024)[3] (CAGR, mutlaq o‘zgarish, nisbiy o‘sish, o‘rtacha qiymat va dispersiya bilan)

| № | Ko‘rsatkich | 2010 | 2024 | Mutlaq o‘sish (Δ) | Nisbiy o‘sish (%) | CAGR (%) | O‘rtacha qiymat* | Dispersiya* | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | YaHM (mlrd so‘m) | 3 394.7 | 54 354.1 | 50 959.4 | 1501.15% | 21.91% | 21 317.77 | 259 369 900 | Sekinlashmaydigan, barqaror yuqori o‘sish. |
| **2** | **Investitsiyalar (mlrd so‘m)** | 655.3 | 16 593.1 | 15 937.8 | 2432.14% | 25.96% | 6 700.50 | 38 318 930 | Eng tez o‘suvchi ko‘rsatkich. |

2 Statistik ma’lumotlarga asoslangan muallif ishlanmasi
3 Statistik ma’lumotlarga asoslangan muallif ishlanmasi

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | **Sanoat mahsulotlari (mlrd so‘m)** | 756.4 | 13 819.8 | 13 063.35 | 1727.04% | 23.06% | 4 103.38 | 13 663 620 | Izchil industrial kengayish. |
| 4 | **Xizmatlar sektori (mlrd so‘m)** | 796.3 | 28 381.8 | 27 585.5 | 3464.21% | 29.08% | 7 143.81 | 54 030 540 | Eng yuqori o‘sish, xizmatlar iqtisodiyotining ustuvorligi. |
| 5 | **Eksport (mln USD)** | 278.8 | 269.5 | –9.25 | –3.32% | –0.24% | 222.94 | 1 623.96 | O‘sish emas, tebranuvchan stagnatsiya. |
| 6 | **Bandlik (%)** | 62.1 | 63.4 | +1.2 | +1.92% | 0.14% | 64.11 | 2.14 | Juda past o‘zgaruvchan, mehnat bozorida inertlik. |
| 7 | **Aholi soni (ming)** | 2 075 | 2 877.1 | +802.1 | 38.66% | 2.36% | 2472.72 | 59 083.49 | Barqaror demografik o‘sish. |

2-jadvalda (umumlashtirilgan statistik jadvalda) keltirilgan ko‘rsatkichlar 2010–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyati iqtisodiy dinamikasining sezilarli darajada farqlanganini ko‘rsatadi. Avvalo, YaHMning mutlaq o‘sishi (50 959,4 mlrd so‘m) va nisbiy kengayishi (1501,1 %) hudud iqtisodiyotining jadal rivojlanganini anglatadi. YaHMning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 21,9 % ni tashkil etib, bu mintaqada iqtisodiy faollikning yuqori darajada shakllanganini tasdiqlaydi. Dispersiya qiymatining katta bo‘lishi (≈ $2{,}59\times10^8$) esa YaHMning vaqt bo‘yicha sezilarli tebranishlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xuddi shu kabi, jadvaldagi investitsiyalar ko‘rsatkichi tahlil qilinganda, u tadqiqot davrida eng tez sur’atlarda oshgan indikatorlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Investitsiyalarning mutlaq o‘sishi 15 937,8 mlrd so‘mni, nisbiy kengayishi esa 2432 % ni tashkil etgan. Investitsiyalarning CAGR ko‘rsatkichi 25,96 % darajasida shakllanib, bu investitsiya oqimlarining hudud iqtisodiy o‘sishidagi yetakchi rolini tasdiqlaydi. Investitsiyalar dispersiyasining yuqoriligi ham mazkur ko‘rsatkichning keskin o‘zgaruvchanligini aks ettiradi.

Sanoat sektori ham izchil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 14 yil davomida 13 063,35 mlrd so‘m miqdorida mutlaq o‘sish qayd etilgan, CAGR esa 23,06 % ni tashkil etgan. Biroq xizmatlar sektori bilan solishtirilganda, sanoatning o‘sish sur’atlari nisbatan past bo‘lib, bu hudud iqtisodiyotining xizmatlar yo‘nalishiga ko‘proq yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sektori investitsiyalar ko‘rsatkichi kabi tadqiqot davrida eng yuqori o‘sish sur’atlariga ega bo‘lgan tarmoq sifatida ajralib turadi. 2010–2024-yillarda xizmatlar hajmi 27 585,5 mlrd so‘mga oshgan bo‘lib, nisbiy o‘sish 3464,2 %, CAGR esa 29,08 % ni tashkil etgan. Ushbu sektorning o‘rtacha qiymati (≈ 7 143,8 mlrd so‘m) sanoatga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lishi hudud iqtisodiy strukturasining xizmatlar sektoriga tayanayotganini tasdiqlaydi.

Eksport ko‘rsatkichi yuqoridagi tarmoqlardan farqli ravishda salbiy dinamikaga ega bo‘lgan (–3,32 %). Eksportning o‘rtacha yillik o‘zgarishi deyarli 0 % darajasida shakllangan. Dispersiyaning past bo‘lishi eksport hajmining stagnatsiyaga yaqin holatda, katta tebranishlarsiz davom etganini bildiradi. Bu holat eksport salohiyatining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganidan dalolat beradi.

Bandlik darajasi esa eng kam o‘zgaruvchan indikatorlardan biri bo‘lib, tadqiqot davrida atigi 1,2 % ga oshgan. O‘rtacha bandlik darajasi 64,1 % ni, dispersiya esa juda past qiymatni (2,13) tashkil etgani bandlik ko‘rsatkichining iqtisodiy faollik bilan bevosita kuchli bog‘liqlikka ega emasligini ko‘rsatadi.

Aholi soni 2010–2024-yillar davomida 802,1 ming kishiga ko‘paygan bo‘lib, CAGR 2,36 % ni tashkil etgan. Ushbu barqaror demografik o‘sish hududda mehnat resurslarining kengayishi hamda ichki iste’mol bozorining o‘sishini qo‘llab-quvvatlagan muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

2-jadval natijalari Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida 2010–2024-yillar davomida eng tez o‘sish xizmatlar sektori va investitsiyalarda kuzatilganini, YaHMning esa aynan ushbu drayverlar ta’sirida yuqori sur’atlarda kengayganini ko‘rsatadi.

Ushbu deskriptiv statistika natijalari 2010–2024-yillar davomida hududdagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada farqlanganini ko‘rsatdi. Biroq ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlari va tebranuvchanlik darajasi ularning iqtisodiy jarayondagi o‘zaro ta’siri haqida to‘liq tasavvur bera olmaydi. Shu sababli keyingi bosqichda asosiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil o‘tkazildi. Ushbu bosqich har bir ko‘rsatkichning YaHM bilan qanchalik yaqin bog‘langanini aniqlash hamda keyingi ekonometrik modellashtirish uchun mos omillarni tanlash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda korrelyatsiya matritsasi keltirilgan bo‘lib, u Surxondaryo viloyatining 2010–2024-yillar oralig‘ida YaHM va asosiy makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchini aniqlash imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval. Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyatsiya matritsasi[4]

| Ko‘rsatkichlar | YaHM | Investitsiya | Sanoat | Xizmatlar | Eksport | Bandlik | Aholi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **YaHM** | 1.000 | **0.9686** | **0.9737** | **0.9467** | 0.1240 | 0.2552 | **0.9691** |
| **Investitsiya** | **0.9686** | 1.000 | **0.9151** | 0.8696 | 0.1533 | 0.2959 | **0.9406** |
| **Sanoat** | **0.9737** | **0.9151** | 1.000 | **0.9912** | 0.2170 | 0.1369 | **0.9130** |
| **Xizmatlar** | **0.9467** | 0.8696 | **0.9912** | 1.000 | 0.2162 | 0.1319 | **0.8781** |
| **Eksport** | 0.1240 | 0.1533 | 0.2170 | 0.2162 | 1.000 | **–0.4828** | –0.0306 |
| **Bandlik** | 0.2552 | 0.2959 | 0.1369 | 0.1319 | **–0.4828** | 1.000 | 0.4195 |
| **Aholi** | **0.9691** | **0.9406** | **0.9130** | **0.8781** | –0.0306 | 0.4195 | 1.000 |

Dastavval YaHM va asosiy makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahliliy o‘rganish maqsadida korrelyatsiya koeffitsiyentlari aniqlandi hamda ular korrelyatsiya matritsasida aks ettirildi. Shundan so‘ng omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta’siri va ularning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek omillar o‘rtasida multikollinearlik mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi chuqur tahlil qilindi (2-rasm).




2-rasm. Korrelyatsiya matritsasi[5]

4 Statistik ma’lumotlarga asoslangan muallif ishlanmasi
5 Statistik ma’lumotlarga asoslangan muallif ishlanmasi

3-jadvalda keltirilgan omil o‘zgaruvchilarning natijaviy omilga ta’sirini aniqlash tuzilayotgan ekonometrik modelga bir-birini takrorlaydigan hamda natijaviy omil bilan nisbatan kuchsiz bog‘langan omillarni kiritmaslik imkonini beradi.

Korrelyatsion tahlil natijalari deskriptiv statistikada kuzatilgan umumiy tendensiyalarni tasdiqlab, ularni miqdoriy jihatdan yanada aniqlashtiradi. Xususan, YaHMning investitsiyalar (r = 0,9686), sanoat ishlab chiqarishi (r = 0,9737) va aholi soni (r = 0,9691) bilan juda yuqori ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu natija hudud iqtisodiy o‘sishi asosan kapital qo‘yilmalar, ishlab chiqarish bazasining kengayishi hamda demografik omillar tomonidan qo‘llab-quvvatlanganini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sektori ham YaHM bilan kuchli bog‘liqlikka ega (r = 0,9467) bo‘lib, bu holat deskriptiv statistikada aniqlangan yuqori CAGR ko‘rsatkichlari bilan mos keladi. Mazkur natija xizmatlar sektorining Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida ustuvor tarmoqqa aylanganini tasdiqlaydi.

Sanoat va xizmatlar sektorlari o‘rtasida juda kuchli o‘zaro bog‘liqlikning mavjudligi (r = 0,9912) ushbu ikki tarmoqning bir-birini to‘ldiruvchi hamda parallel rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ular o‘rtasidagi uzviylik hudud iqtisodiy strukturasi modernizatsiyalashuv jarayonida kompleks tarzda shakllanayotganini anglatadi.

Eksportning YaHM bilan bog‘liqligi past darajada shakllangan (r = 0,1240) bo‘lib, bu ko‘rsatkich mazkur tarmoqning hudud iqtisodiy o‘sish modeliga sezilarli hissa qo‘shmaganini bildiradi. Ushbu holat deskriptiv tahlilda aniqlangan stagnatsiyaga yaqin natijalar bilan ham uyg‘un keladi. Eksport va bandlik o‘rtasidagi salbiy korrelyatsiya (r = -0,4828) esa tashqi savdo kengaygan davrlarda mehnat bozori tarkibida qisqa muddatli moslashuv jarayonlari kuzatilganini ko‘rsatadi.

Bandlik ko‘rsatkichining YaHM bilan sust bog‘liqligi (r = 0,2552) uning tahlil qilinayotgan davr davomida deyarli o‘zgarmaganligi bilan izohlanadi. Aholi sonining barcha asosiy iqtisodiy tarmoqlar bilan yuqori bog‘liqlikka ega ekanligi esa demografik o‘sish hudud iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlovchi barqaror omil bo‘lganini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, korrelyatsion tahlil deskriptiv statistikada aniqlangan tendensiyalarni miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi hamda iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlari sifatida investitsiyalar, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sektori va aholi soni ajralib chiqishini ko‘rsatadi. Eksport va bandlik ko‘rsatkichlari esa iqtisodiy o‘sish bilan kuchli bog‘liqlikka ega bo‘lmay, hudud rivojlanishining ikkilamchi omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu natijalar keyingi bosqich — ko‘p omilli regressiya modelini qurish uchun ishonchli empirik bazani shakllantiradi.

Keyingi qadamda natijaviy omil bilan kuchsiz bog‘langan omillar chiqarib tashlanib, regressiya tenglamasi tuzildi. Regressiya tenglamasini shakllantirish ekonometrik tahlil va modellashtirish uchun mo‘ljallangan, amaliy dasturiy ta’minot sinfiga kiruvchi gretl 2022c dasturidan foydalangan holda amalga oshirildi.

$$YaHM = -43047,7 + 0,945x_1 + 0,764x_3 + 1,259x_6 + \varepsilon \qquad (1)$$

Tuzilgan ekonometrik modellar ahamiyatliligi, sifati, parametrlarini ishonchliligi va keyinchalik prognozlashda qo‘llash mumkinligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

Ko‘p omilli regressiya tenglamasi statistik ahamiyatliligi Fisherning F-mezonidan foydalangan holda tekshirildi. Ma’lumki, ahamiyatlilikni baholash statistik farazlar asosida amalga oshiriladi: bunday holda asosiy faraz $H_0: \sigma_{\hat{y}}^2 = \sigma_{\varepsilon}^2$, muqobil faraz esa $H_a: \sigma_{\hat{y}}^2 \neq \sigma_{\varepsilon}^2$, deb qaraladi. Nol farazni tekshirish uchun Fisher mezonining hisoblangan va jadvalli qiymatlarini aniqlash zarur. Fisher mezonining jadval qiymati $F(\alpha, f_1, f_2)$, (bunda α - ahamiyatlilik koeffitsiyenti; $f_1$ – omil o‘zgaruvchilar soni, $f_1$=k, $f_2$=n-1-k; n – kuzatuvlar soni (yillar)), Fisher-Snedekor jadvali bilan aniqlanadi. Agar $F>F(\alpha, f_1, f_2)$ bo‘lsa, unda bu nol farazni rad etib va muqobil farazni qabul qilish kerakligini anglatadi [13].

Nol faraz rad etilmasa, u holda: omil o‘zgaruvchilarning ($x_1, x_2, x_3, ..., x_k$ omillar) YaHM (natijaviy omilga – y) ta’siri ahamiyatsiz, regressiya tenglamasi umumiy sifati past, degan xulosa qilinadi. Agar $F<F(\alpha, f_1, f_2)$ bo‘lsa, unda bu nol farazni qabul qilish lozimligini bildiradi [13].

Ushbu statistik farazlarga amal qilgan holda, gretl 2022c dasturi vositalari yordamida tuzilgan modelning Fisher F-mezonining hisoblab chiqilgan qiymatlari jadval qiymatlari bilan taqqoslandi va $F_{hisob} > F_{jadval}$ ekanligini ko‘rsatdi. Fisherning F-mezoni bo‘yicha $F_{hisob} > F_{jadval}$ bo‘lganligi bois, tuzilgan ko‘p omilli regressiya tenglamasini haqqoniy deb e’tirof etish mumkin.

Keyingi bosqichda, ko‘plik korrelyatsiya koeffitsiyenti hamda determinatsiya koeffitsiyenti yordamida ko‘p omilli regressiya tenglamalari sifati baholandi. Tadqiq etilayotgan obyektda, regressiya tenglamasi uchun, R - ko‘plik korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,997 ga teng ekanligi aniqlandi. Bu esa o‘z navbatida, regressiya tenglamasida omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchli ekanligidan dalolat beradi (3-rasm).

```
gretl: модель 2

Файл  Правка  Тесты  Сохранить  Графики  Анализ  LaTeX

Последовательное исключение с использованием двухстороннего p-значения = 0,05

 Исключена переменная x2               (p-значение 0,969)
 Исключена переменная x4               (p-значение 0,711)
 Исключена переменная x5               (p-значение 0,068)

Тестирование модели 1:

  Нулевая гипотеза: параметры регрессии нулевые
    x2, x4, x5
  Тестовая статистика: F(3, 8) = 1,17372, p-значение 0,378569
  Исключение переменных улучшило 3 из 3 информационных критериев.

Модель 2: МНК, использованы наблюдения 1-15
Зависимая переменная: y

             коэффициент    ст. ошибка   t-статистика   p-значение
  ------------------------------------------------------------------
  const     -43047,7       11469,8         -3,753       0,0032    ***
  x1             0,945270      0,196006     4,823       0,0005    ***
  x3             0,764714      0,117174     6,526       4,27e-05  ***
  x6            21,2595        5,15214      4,126       0,0017    ***

Среднее завис. перемен  21317,77   Ст. откл. завис. перем  16104,97
Сумма кв. остатков      24263439   Ст. ошибка модели       1485,183
R-квадрат               0,993318   Исправ. R-квадрат       0,991496
F(3, 11)                545,0735   Р-значение (F)          3,06e-12
Лог. правдоподобие     -128,5073   Крит. Акаике            265,0146
Крит. Шварца            267,8468   Крит. Хеннана-Куинна    264,9845
обратите внимание на сокращенные обозначения статистики
```

3-rasm. Koʻp omilli regressiya modeli baholash natijalari[6]

Determinatsiya koeffitsiyenti orqali modelning umumiy sifatiga baho berildi. Ya’ni determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2$) regressiya modelining umumiy tushuntirish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Olingan natijalarga koʻra, YaHM oʻzgaruvchanligining 99,3 foizi modelga kiritilgan mustaqil oʻzgaruvchilar tomonidan izohlanadi, qolgan 0,7 foizi esa modelda hisobga olinmagan omillar ta’siri bilan bogʻliq.

$R^2$ regressiya modelining YaHMdagi oʻzgaruvchanlikni qanchalik darajada izohlab berishini koʻrsatadi. Ammo u har doim yangi omil qoʻshilganda oshib boradi, hatto u omil iqtisodiy jihatdan ahamiyatsiz boʻlsa ham.

Adjusted $R^2$ aynan shu kamchilikni bartaraf etadi. Determinatsiyaning normallashtirilgan koeffitsiyenti (Adjusted $R^2$), modelga kiritilgan mustaqil oʻzgaruvchilar sonini hisobga olgan holda uning tushuntirish qobiliyatini baholaydi. Hisob-kitoblarga koʻra, Adjusted $R^2$ = 0,9914 boʻlib, bu YaHM oʻzgaruvchanligining 99,14 foizi tanlangan omillar tomonidan izohlanishini va regressiya modelining yuqori sifatga ega ekanligini koʻrsatadi. $R^2$ va Adjusted $R^2$ qiymatlarining yaqinligi modelning ortiqcha omillar bilan yuklanmaganini tasdiqlaydi.

Modelning aniqligi $\varepsilon$ - oʻrtacha absolyut foiz xatolik (approksimatsiya xatolik) qiymatlari yordamida baholandi. Regressiya tenglamasi uchun oʻrtacha approksimatsiya xatolik koeffitsiyenti $\varepsilon$= 0,062 (6,2 %)ga teng ekanligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval. Oʻrtacha absolyut foiz xatolik qiymati va izohi[7]

| **Oʻrtacha absolyut foiz xatolik (ε), %** | **Izoh (Sharh)** |
|---|---|
| <10 | Prognoz aniqligi yuqori |
| 10-20 | Aniqligi yaxshi |
| 20-50 | Aniqligi qoniqarli |
| >50 | Aniqligi qoniqarsiz |

Fikrimizcha, ushbu modeldan amaliy maqsadlarda toʻlaqonli foydalanish mumkin.

Koʻp omilli regressiya tenglamasi parametrlari ishonchliligi Styudentning t – mezonidan foydalangan holda tekshirildi (baholandi). Natijada, regressiya tenglamasidagi Styudent mezonining hisoblangan qiymatlari uning jadval qiymatlaridan katta ekanligini koʻrsatdi. Koʻrib chiqilayotgan regressiya tenglamasida Styudent t-mezonining hisoblangan qiymatlari $t_{a1}$ = 4,823, $t_{a3}$ = 6,526, $t_{a6}$ = 4,126 ga teng. Styudent t-mezonining jadval qiymati esa sur’at erkinlik darajasi soni $f_1$=3 ga va maxraj erkinlik darajasi soni $f_2$ = n-1-k = 15-1-3 = 11 ga

6 Izoh: Gretl 2022c dasturida OLS usuli asosida muallif tomonidan hisoblangan.
7 Manba: http://www.ekonomika-st.ru/drugie/metodi/metodi-prognoz-1-2.html

teng bo‘lganda hamda ahamiyatlilik koeffitsiyenti α=0,05 ehtimollikga mos holatda, $t_{jadval}$ = 2,2009 ni tashkil etdi. Tahlil natijalari, Styudent t-mezonining hisoblangan qiymatlari jadval qiymatlaridan ($t_{a1} > t_{jad}$ , $t_{a3} > t_{jad}$, $t_{a6} > t_{jad}$) kattaligini, shuningdek, regressiya tenglamasi $a_{1,}$ $a_6$ , $a_7$ parametrlari ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ish Surxondaryo viloyatida 2010–2024-yillar davomida hududiy iqtisodiy o‘sish jarayonlari hamda ularning asosiy determinantlarini ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqotda yalpi hududiy mahsulot (YaHM) dinamikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar sifatida investitsiyalar hajmi, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sektori rivoji, eksport ko‘rsatkichlari, bandlik darajasi va aholi soni tanlab olindi.

Deskriptiv va korrelyatsion tahlil natijalari Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish asosan investitsiya faolligi, xizmatlar sektori kengayishi hamda sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Ko‘p omilli regressiya modeli natijalari hududiy iqtisodiy o‘sish determinantlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy jihatdan tasdiqladi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 \approx 0,993$) YaHMdagi o‘zgarishlarning katta qismi tanlangan omillar orqali izohlanishini ko‘rsatdi. Normallashtirilgan determinatsiya koeffitsiyentining yuqori qiymati (Adjusted $R^2 \approx 0,991$) modelning haddan tashqari moslashuvga ega emasligini hamda tanlangan omillar to‘plamining iqtisodiy jihatdan asosli ekanligini tasdiqlaydi. Prognoz aniqligining o‘rtacha foiz xatosi (MAPE ≈ 6 %) model natijalarining amaliy jihatdan ishonchliligini ko‘rsatib, uni hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish uchun investitsiyalarni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarga yo‘naltirish, xizmatlar sektorini diversifikatsiyalash, sanoat ishlab chiqarishida texnologik yangilanishlarni jadallashtirish hamda bandlikni oshirishga qaratilgan faol mehnat bozori siyosatini kuchaytirish zarurligi asoslab berildi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini oshirish maqsadida hududiy mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish va tashqi bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mazkur ish bir qator cheklovlarga ega ekanligini qayd etish lozim. Avvalo, tahlil 2010–2024-yillarga oid vaqt qatori ma’lumotlari bilan cheklangan bo‘lib, institutsional sifat, innovatsion faollik, norasmiy sektor hajmi hamda infratuzilma sifati kabi ayrim muhim omillar statistik ma’lumotlarning cheklanganligi sababli modelga kiritilmadi. Shuningdek, tadqiqot bitta hudud misolida olib borilgani natijalarni boshqa viloyatlarga to‘liq ekstrapolyatsiya qilish imkonini cheklaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda hududlararo solishtirma tahlillar, panel ma’lumotlar yondashuvi hamda fazoviy ekonometrik modellarni qo‘llash hududiy iqtisodiy o‘sish omillarini yanada chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. “World Full Year GDP Growth.” (2025). Trading Economics. https://tradingeconomics.com/world/full-year-gdp-growth Trading Economics+1
2. “Measurement and Influencing Factors of Regional Economic Resilience.” (2023). Sustainability, 16(8), Article 3338. https://doi.org/10.3390/su16083338 MDPI
3. Zaripova M.D., Normurodov A.A. Surxondaryo viloyatining iqtisodiy salohiyatini baholashning statistik yondashuvi. “Hududlarda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish: muammolar va yechimlar” respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro shahri, 14-noyabr 2025 yil. 252-258-betlar.
4. Crescenzi, R., & Iammarino, S. (2017). Global investments and regional development trajectories: The missing links. Journal of Economic Geography, 17(5), 1179–1208. https://doi.org/10.1093/jeg/lbx006
5. Boschma, R. (2015). Towards an evolutionary perspective on regional economic resilience. Regional Studies, 49(5), 733–751. https://doi.org/10.1080/00343404.2014.959481
6. Martin, R., & Sunley, P. (2015). On the notion of regional economic resilience: Concept, measurement, and policy implications. Journal of Economic Geography, 15(1), 1–42. https://doi.org/10.1093/jeg/lbu015
7. World Bank. (2020). Uzbekistan Country Economic Memorandum: A new economic model for inclusive and sustainable growth. World Bank Publications.
8. Asian Development Bank. (2023). Key Indicators for Asia and the Pacific 2023. ADB. https://www.adb.org
9. OECD. (2021). OECD Regional Outlook 2021: Addressing COVID-19 and moving to resilient recovery. OECD Publishing. https://www.oecd.org
10. Kerimova, A. (2021). Regional economic development in resource-dependent economies: Evidence from Kazakhstan. Eurasian Economic Review, 11(4), 567–589. https://doi.org/10.1007/s40822-021-00194-8
11. Umarov, A. (2019). Determinants of regional GDP growth in Uzbekistan: An econometric analysis. Journal of Economics and Innovative Technologies, 7(3), 112–119.
12. Rasulov, M. (2021). Structural transformation and regional growth patterns in Uzbekistan. Central Asian Economic Review, 23(2), 45–59.
13. Зарипова, М. (2021). Олий таълим муассасаларида таълим сифат ва самарадорлигини корреляцион-регрессион таҳлил ёрдамида ошириш. Iqtisodiyot va ta’lim, (5), 269-276.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

**2025. № 12**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz